

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**

**YONG'IN XAVFSIZLIGI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR  
MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

---

**RAHBARIY HUJJAT**

---

**YONG'IN O'CHIRISH AVTOMATIK QURILMALARI,  
YONG'IN VA QO'RIQLASH SIGNALIZATSIYALARI.  
GRAFIK SHARTLI BELGILAR**

**RH 01- 004:2022**

**Rasmiy nashr**

**TOSHKENT 2022**

**UDK 614.844**

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

**Mualliflar:** S.Djuraev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2022-yil 15-oktabrdagi 475-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

RH 01-004:2022 "Avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari, yong'in va qo'riqlash signalizatsiyalari. Grafikli shartli belgilar".

RH 01-004:2022 "Avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari, yong'in va qo'riqlash signalizatsiyalari. Grafikli shartli belgilar" kuchga kirgandan so'ng, YoXRH 01-004:2010 "Yong'in o'chirish avtomatik qurilmalari, yong'in va qo'riqlash signalizatsiyalari. Grafikli shartli belgilar" o'z kuchini yo'qotadi.

Ushbu hujjat rasmiy nashr sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutining ruxsatisiz to'liq yoki qisman talqin qilinishi, tirajlanishi va tarqatilishi mumkin emas.

## **RH 01-004:2022 “Avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmalari, yong‘in va qo‘riqlash signalizatsiyalari. Grafikli shartli belgilar”**

### **Qo‘llanilish sohasi**

Mazkur qoidalar yong‘in o‘chirish va signalizatsiya tizimlari va komplekslarini loyihalashda ularning grafikli belgilarini va tasvirlarini belgilaydi.

Qonun hujjatlariga muvofiq xabardor etish tartibining tasdiqnomasi yoki belgilangan namunadagi litsenziyalar asosida barcha montaj va ishga tushirish tashkilotlari, firmalar tomonidan turli xil mulkchilik ob‘ektlarida yong‘inga qarshi avtomatika vositalari va qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi tizimlarini loyihalash, montaj, sozlash, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlarni olib borishda ushbu qoidalarga amal qilishlari kerak.

### **Umumiy qoidalar**

1. Texnik xususiyatlarni to‘liq aks ettirish uchun shartli belgilar, raqamli, xarfli yoki xarf-raqamli belgilar bilan to‘ldirilishi mumkin.

2. Bitta hujjatda (loyihada) keltirilgan grafik belgilar bir xil masshtabda bajarilishi lozim.

3. Shartli belgilarda qo‘shimcha ravishda ishlatiladigan raqamli, xarfli va xarf-raqamli ko‘rsatkichlar ushbu qoidalarning 1-bandi talablariga muvofiq loyihaning belgilar qismida tushuntirib o‘tilishi kerak.

4. Bir nechta klapanlardan iborat boshqaruv-ishga tushuruvchi bog‘lamaning xarf-raqamli belgilanishi quyidagi ketma-ketlikda yozilishi kerak: klapanlar markalari, nuqta bilan ajratilgan shartli ichki diametri va nuqta bilan ajratilgan tartib raqami.

Masalan: KZS.BS100.1

5. Yong‘in signalizatsiyasi xabarlagichning xarf-raqamli belgisi quyidagi ketma-ketlikda yozilishi kerak: boshqaruv uskunaning raqami, xabarlagichning harfli kodi, shleyf raqami, xabarlagichning tartib raqami. Shleyfning raqami va xabarlagichning tartib raqami belgilanganda nuqta bilan ajratilishi kerak. Belgilarni tuzish uchun lotin alifbosining yozma harflari qo‘llaniladi.

Masalan: 2VTK1.12

2 – qabul qilish-nazorat uskunaning raqami

VTK – mazkur RH 4-jadvaliga muvofiq xabarlagichning xarfli kodi;

1 – shleyf raqami;

12 – xabarlagichning tartib raqami.

6. Qayta-qayta takrorlanadigan xarf-raqamli belgilarni chizmaning boshida va ohirida bir yoki ikki marta ko‘rsatishga ruxsat etiladi.

7. Elementlarning shartli grafik va harf-raqamli belgilari **1, 2, 3, 4 - ilovalardagi** jadvallarga mos kelishi kerak.



### **HUJJATNING TO‘LIQ VERSIYASIGA KIRISH CHEKLANGAN**

Hujjatni sotib olish uchun buyurtma berishingiz kerak.  
Hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutida buyurtma qilishingiz mumkin.

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun telefon **71 212-68-68**